



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**“O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TURIZMNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Buxoro shahri, 13-14-iyun 2025-yil

**“ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО
ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ”**

Международная научно-практическая конференция

г. Бухара, 13-14-июня 2025 года

**“PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF
INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN”**

International Scientific and Practical Conference

Bukhara, June 13-14, 2025

Buxoro – 2025

“O‘zbekistonda inklyuziv turizmni rivojlantirish istiqbollari”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. 2025-yil 13-14-iyun: - Buxoro :

1. Quyidagi tarkibdan iborat dasturiy qo‘mita

1.	O.X.Xamidov	- Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais;
2.	K.A.Samiyev	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini;
3.	N.S.Ibragimov	- Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani v.v.b., i.f.d., professor, loyiha rahbari, a‘zo
4.	D.Sh.Yavmutov	- Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor, a‘zo;
5.	A.T.Jurayev	- Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, i.f.n, dotsent, a‘zo;
6.	O.S.Qahhorov	- Ilmiy tadqiqod va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, i.f.d, professor, a‘zo;
7.	B.N.Navruz-Zoda	- Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., psofessor, a‘zo;
8.	A.J.Abdullayev	- Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a‘zo;
9.	H.R.Turobova	- Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d,
10.	J.R.Toxirov	- Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a‘zo;
11.	Y.K.Sunnatov	- Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d,a‘zo;

2. Quyidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo‘mita

1.	K.A.Samiyev	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais;
2.	O.S.Qahhorov	- Ilmiy tadqiqod va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, i.f.d, professor, a‘zo;
3.	N.S.Ibragimov	- Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani v.v.b., i.f.d., professor, loyiha rahbari, a‘zo
4.	B.N.Navruz- Zoda	- Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., psofessor, a‘zo;
5.	A.J. Abdullayev	- Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor,a‘zo;
6.	H.R.Turobova	- Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d,
7.	J.R.Toxirov	- Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a‘zo;
8.	Y.K.Sunnatov	- Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d,
9.	Z.S.Nurov	- Ta‘lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig‘i, i.f.f.d,
10.	M.H.Qilichov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
11.	K.Sh.Yuldashev	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
12.	I.O.Davronov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
13.	O.O.Radjabov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
14.	E.A.Farmonov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,

Mazkur to‘plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g‘oyalar mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o‘zlari mas‘uldirlar.

Ushbu xalqaro anjuman O‘zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida moliyalashtirilayotgan ALM-202403110241-raqamli “Nogironligi bor shaxslar uchun inklyuziv turizm infratuzilmasining interfaol xaritasini yaratish” mavzusidagi loyiha doirasida tashkil etildi.

markazlarini tashkil qilish ishlari katta islohotlarni talab qiladi. Tadqiqotlar mobaynida shuni guvohi bo'ldikki, ichki turizm bo'yicha mamlakatimizda ilmiy ishlar deyarli amalga oshirilmagan. Bu esa o'z navbatida qilinishi kerak bo'lgan ishlar hali ko'pligini anglatadi. Ichki turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan Yo'l xaritasi mavjud, ammo zarur bo'lgan barcha jihatlar qamrab olinmagan. Ushbu yo'nalishda uzoq muddatli strategiyalar va konsepsiyalar esa qayta tahlilga muhtojligi ko'rinib turibdi.

Ichki turizmni jadal rivojlantirish to'g'risida 7-fevralda qabul qilingan PQ-3514-sonli qarorda belgilangan yengilliklar, xodimlarni sayohatga chiqishi xarajatlarini soliq solish bazasidan kamaytirilishi bu borada yangi imkoniyatlarni yaratdi. Shunga ko'ra, aholini Respublika hududlaridan Buxoroga va Buxorodan boshqa viloyatlarga sayohatini tashkil qilish grafiklari tasdiqlanib, amalga oshirilmoqda.

Ichki turizm yo'nalishida Buxoroga keluvchi sayyohlar soni (mustaqil ravishda sayohatga chiquvchilar bilan birga) 2,2 mln.dan oshdi.

Buxoroning yangilangan turistik xaritasi (komplekti) ishlab chiqilib, 20 000 nusxada chop etildi. Hozirda ushbu xaritalar info kiosklarning barchasida mavjud.

Buxoro shahrining qadimiy qismida 32 ta joyda yo'l belgilari, 10 dan ortiq joyda Wi-Fi xizmati o'rnatish, 6 ta joyda qahva, muzqaymoq va salqin ichimliklar sotish shaxobchalari va 5 ta axborot markazlari tashkil etish (Infotsentr) loyihalari yakuniga yetkazilib, bugungi kunda ushbu axborot markazlari faoliyat yuritmoqda.

Turistlarga qulay sharoitlar yaratish bo'yicha Buxoro shahrining qadimiy qismiga yo'naltiruvchi Naqshband ko'chasida "Shoxrud" anhuri, "Ark" qo'rg'oni bo'ylab va "Poyi kalon" majmuasi yon tomonlarida qator ishlar amalga oshirildi.

Shaharning tarixiy qismida oqava suvlarning to'planib qolmasligi uchun yangidan kanalizatsiya tarmog'i o'tkazilib, yo'llar kengaytirildi, asfalt yotqizildi, alohida piyodalar yo'lakchasi tashkil etilib, tungi yoritish chiroqlari, o'rindiqlar va chiqindi qutilari o'rnatildi, non mahsulotlari sotish pavilyoni ishga tushirildi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Taygibova T. T. Jurnal Molodoy uchenyy. 2012. №1 [32].
2. Lobar D. R., Nilufar U. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – C. 560-565.
3. Bobojonova M. J. Pandemiyadan keyingi davrda turizmni barqaror rivojlantirishning istiqbolli yo'llari //Analysis of modern science and innovation. – 2025. – T. 1. – №. 4. – C. 284-291.
4. Turobjonovna K. M., Tursunbayevich B. B., Isroilxon o'g'li N. M. Milliy turizmni rivojlantirish bo'yicha Qoraqalpog'iston va respublikamizda infratuzilma holati //Economics and Innovative Technologies. – 2025. – T. 13. – №. 1. – C. 142-150.
5. Khasanova G. D., Zoirova S. M. Buxoro viloyatida ichki turizmni rivojlantirishni takomillashtirish //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 6. – C. 362-367.

ROMITAN VA KOGON TUMANLARINING TURIZM SALOHİYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ILMIY-TADQIQOTLARNING MAVZULARINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI

*Yuldashev Kamol Sharifovich
Davronov Istamxo'ja Olimovich
Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi
Buxoro davlat univeristeti*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi 135-sonli Qaroriga muvofiq, Buxoro davlat universitetiga Buxoro viloyatining Romitan va Kogon tumanlarining turizm salohiyatini oshirish vazifasi yuklatilgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini kompleks rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida turizm iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatda sayyohlik infratuzilmasini takomillashtirish, ichki va xalqaro turizmni rag'batlantirish, zamonaviy turizm mahsulotlarini shakllantirish hamda mintaqaviy salohiyatni ochish orqali hududiy rivojlanish maqsad qilingan.

Shu nuqtai nazardan, Buxoro viloyatining Romitan va Kogon tumanlari alohida e'tiborga loyiq hududlar hisoblanadi. Bu tumanlar tarixiy obidalari, ziyoratgohlari, milliy oshxonasi va an'anaviy hayot tarzi bilan sayyohlar uchun muhim manzil bo'la oladi. Ammo ushbu boy turizm salohiyatini amalda to'liq ro'yobga chiqarish, uni ichki turizm mahsuloti sifatida shakllantirish va zamonaviy usullarda targ'ib qilish hali ham dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Mazkur ilmiy-amaliy loyihalar ana shu ehtiyoj va imkoniyatlardan kelib chiqib ishlab chiqilgan bo'lib, quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- Kichik va o'rta biznes orqali mehmonxona va homestay xizmatlarini rivojlantirish;
- Kogon shahrining tarixiy obidalarini xalqaro va ichki turizm orqali targ'ib qilish;
- Ijtimoiy tarmoqlar yordamida yoshlar turizmini rivojlantirish;
- Mahalliy gastronomiyani turizm mahsuloti sifatida shakllantirish;
- Romitan va Kogon tumanlarining ziyoratgohlar salohiyatini ichki turizmga ilgari surish.

Kichik va o'rta biznes orqali Kogon va Romitan tumanida mehmonxona va homestay xizmatlarini rivojlantirish¹:

Turizm infratuzilmasining kengayishi – Kogon va Romitan tumanlarida zamonaviy, ammo mahalliy koloritni saqlagan turar joylarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa yangi mehmonxonalar va homestaylar ochishga asos bo'ladi.

Mahalliy aholi bandligini ta'minlash – Homestay xizmatlarini rivojlantirish orqali mahalliy aholining daromad manbai kengayadi, ayniqsa ayollar va yoshlar uchun ish o'rinlari yaratiladi.

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash – Loyiha tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish, ularning faoliyatini moliyaviy va tashkiliy jihatdan rivojlantirish orqali mintaqada kichik biznesning o'sishiga xizmat qiladi.

Mahalliy madaniyat va an'analarni saqlash – Homestay xizmatlari orqali sayyohlar to'g'ridan-to'g'ri mahalliy hayot tarzini kuzatish va unda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa madaniy merosni asrash va uni turizm orqali ommalashtirishga yordam beradi.

Barqaror turizmni rivojlantirish – Mahalliy resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan xizmatlar hududning turistik jozibasini oshiradi va uzoq muddatli foyda keltiradi.

Loyiha doirasida mehmonxonalar, homestay uylari, ovqatlanish maskanlari va boshqa yordamchi xizmatlar rivojlanishi orqali mahalliy aholiga doimiy ish o'rinlari taqdim etiladi. Bu, ayniqsa, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan qishloq hududlari uchun nihoyatda dolzarbdir. Shuningdek homestay xizmatlari orqali sayyohlar an'anaviy mehmonxonaga muqobil, iqtisodiy jihatdan arzonroq, ammo madaniy jihatdan boy va noyob yashash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa sayyohlar oqimini ko'paytiradi. Turizm klasterlarini shakllantirish imkoniyatlari ham kengayadi. Xususi sektor ishtirokida turizm bilan bog'liq xizmatlar (gidlar, transport, ovqatlanish, hunarmandchilik) tizimli ravishda rivojlanadi va mintaqaviy turizm klasterlari tashkil etiladi.

Kogon shahrining tarixiy obidalarini xalqaro va ichki turizm orqali jalb etish konsepsiyasi²:

O'zbekistonning boy tarixiy merosi va madaniy obidalari bugungi kunda xalqaro turizm sohasida muhim omillardan biri hisoblanadi. Kogon shahri Buxoro viloyatida joylashgan bo'lib, u o'zining tarixiy-geografik ahamiyati, temiryo'l markazi sifatidagi roli va atrofidagi madaniy obidalar bilan alohida e'tiborga loyiqdir. Biroq, mavjud tarixiy obidalar hali to'liq o'rganilmagan,

¹ "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" (2022-yil 28-yanvar, PF–60-son). ijrosini ta'minlash maqsadida tuzilgan.

² ICOMOS (International Council on Monuments and Sites) – tarixiy obidalarni saqlash va turizmga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar.

targ'ib qilinmagan yoki turizm sohasi uchun yetarlicha infratuzilma bilan ta'minlanmagan. Mazkur loyiha dolzarb bo'lishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

Sayyohlar e'tiborini yangi hududlarga yo'naltirish zarurati- Buxoro shahri turizm markazi sifatida tanilgan, ammo unga yaqin bo'lgan Kogon shahrining imkoniyatlari hali yetarli darajada foydalanilmayapti. Bu loyiha orqali turistik oqimni diversifikatsiya qilish mumkin.

Tarixiy merosni asrash va ommalashtirish-Kogonda joylashgan tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, ularni ichki va xalqaro sayyohlar uchun ochish orqali milliy qadriyatlar targ'ib qilinadi va asrab qolish choralari ko'riladi.

Hududiy turizm strategiyasining talablariga javob berishi - O'zbekistonning har bir hududida turizm klasterlarini rivojlantirish strategiyasi doirasida Kogon shahrining tarixiy boyliklarini turizm resursi sifatida qayta ochish – dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur loyiha real hayotda quyidagi amaliy foydalarni beradi. Kogonning tarixiy obidalari asosida maxsus ekskursiya marshrutlari, tematik turlar va madaniy tadbirlar tashkil etilishi mumkin. Bu sayyohlar uchun yangi tajriba bo'lib xizmat qiladi. Sayyohlar oqimi ortishi bilan mehmonxona, ovqatlanish, transport, gidlik, hunarmandchilik kabi xizmatlar rivojlanadi. Bu esa mahalliy aholining daromadini oshiradi. Turizm bilan bog'liq kichik bizneslar – kafe, do'kon, sayyohlik agentliklari, madaniy xizmatlar uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi. Sayyohlik uchun zaruriy yo'llar, axborot belgilar, turistik markazlar, tualet va yoritish tizimlari modernizatsiya qilinadi, bu esa umumiy shahar infratuzilmasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kogonning tarixiy obidalari xorijiy sayyohlarga tanishtirilsa, shahar xalqaro miqyosda tanilishi va O'zbekistonning turizm xaritasida alohida o'rin egallashi mumkin. Tarixiy joylarda milliy festivallar, xalq san'ati ko'rgazmalari va madaniy marosimlar tashkil etish orqali ichki turizm faoliyati jonlanadi.

Kogon va Romitan tumanlarida yoshlar turizmini rivojlantirish bo'yicha ijtimoiy tarmoq kompaniyasi loyihasi¹:

Kogon va Romitan tumanlari Buxoro viloyatining boy madaniy-tarixiy va tabiiy salohiyatga ega hududlaridan bo'lib, u yerda yoshlar turizmini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ammo bu imkoniyatlar hali yetarli darajada ommalashtirilmagan. Shu sababli, ijtimoiy tarmoq kompaniyasi orqali yoshlar turizmini rag'batlantirish loyihasi hozirgi sharoitda nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali mahalliy tarixiy joylar, tabiiy go'shalar, madaniy tadbirlar, milliy ovqatlar va urf-odatlar yoshlar uslubida taqdim etiladi. Bu esa ularning e'tiborini jalb qiladi va mahalliy turizmga qiziqishni oshiradi. oyihaga yosh blogerlar, fotograf va videomontajchilarni jalb qilish orqali hududiy SMM (ijtimoiy media marketing) infratuzilmasi rivojlanadi. urizm yo'nalishida faol bo'lgan yoshlar uchun yangi ish o'rinlari – gidlik, marketologlik, kontent yaratuvchilik, SMM mutaxassisligi bo'yicha sharoitlar yaratiladi. oshlar o'zlari yashayotgan hududni targ'ib qilish orqali faollik va vatanparvarlik hissini kuchaytiradi, shuningdek zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda kreativ fikr yuritishni o'rganadi.

Mahalliy gastronomiyani ichki turizm mahsuloti sifatida rivojlantirish: Romitan va Kogon misolida²:

Bugungi kunda gastronomik turizm (ovqatlanish madaniyatiga asoslangan turizm) global turizm sanoatida eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlardan biridir. Turistlar nafaqat tarixiy va tabiiy obidalarni ko'rishni, balki mahalliy taomlarni tatib ko'rish va milliy oshxona bilan bevosita tanishishni ham istaydilar. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning boy gastronomik merosi – bu ichki turizmni rivojlantirishda ulkan imkoniyat hisoblanadi. Romitan va Kogon tumanlari Buxoro viloyatining o'ziga xos madaniyati, urf-odatlari va oshxona an'analari bilan ajralib turadi. Ammo bu hududlarda gastronomik turizm hali to'laqonli rivojlanmagan, uning mahsulot sifatida shakllanishi va ichki bozorda ilgari surilishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

¹ OECD – Promoting Youth Involvement in Tourism, 2019, HubSpot Blog, SproutSocial va Hootsuite – yoshlar auditoriyasiga mo'ljallangan ijtimoiy media strategiyalari bo'yicha materiallaridan olingan ma'lumotlar

²UNWTO (World Tourism Organization) – Gastronomy Tourism Global Report, 2020., Slow Food International – Food Tourism and Local Development (2021).

Mahalliy taomlar asosida "Gastro-tour" formatidagi ekskursiyalar, taom tayyorlash bo'yicha master-klasslar va pazandachilik festivallarini o'tkazish orqali yangi turizm mahsulotlari yaratiladi. Mahalliy oshpazlar, oilaviy restoranlar, nonvoyxonalar va qandolat sexlari uchun keng imkoniyatlar ochiladi. Bu esa yangi ish o'rinlari va mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir beradi. Romitan va Kogon tumanlarining ma'lum taomlari va ularning tayyorlanish usullari turistlar orasida mashhurlik qozonsa, bu hududlar o'ziga xos gastronomik yo'nalish sifatida taniladi. Loyiha orqali mahalliy mahsulotlarni targ'ib qilish, ekologik toza va o'ziga xos lazzatli ovqatlar tayyorlash an'anasini saqlab qolish mumkin.

Romitan va Kogon tumanlarining ziyoratgohlar salohiyatini ichki turizmga targ'ib qilish yo'nalishlari¹:

O'zbekistonning boy diniy va ma'naviy merosi ichki turizmni rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ziyorat turizmi (pilikrim turizmi) nafaqat diniy ibodat, balki madaniy-ma'naviy qadriyatlarni chuqur anglash, tarixiy xotirani jonlantirish va milliy o'zlikni mustahkamlash vositasidir. Shu jihatdan, Romitan va Kogon tumanlarida joylashgan tarixiy ziyoratgohlar – masjidlar, maqbaralar, xonaqohlar va avliyo qadamjolari ichki turizm uchun katta salohiyatga ega.

Romitan va Kogon tumanlari ziyoratgohlar orqali milliy tarix sahnalarini eslatib turadigan noyob maskanlar bo'lib, ularning targ'iboti orqali mahalliy madaniy meros jonlanadi. Ziyorat joylari bo'yicha yo'nalishlar, ekskursiya marshrutlari va diniy-ma'naviy tematik turlar ishlab chiqiladi. Bu esa oilaviy sayohatlar, diniy maktablar va talabalarning tashrifini faollashtiradi. Ziyoratgohlarga olib boruvchi yo'llar, tozalash tizimi, yoritish, dam olish maskanlari, ibodat zonalar va savdo nuqtalarini barpo etish mahalliy infratuzilmani rivojlantirishga turtki beradi. Romitan va Kogon tumanlarida joylashgan maqbaralar va muqaddas qadamjolar ommaviy tarzda targ'ib qilinsa, bu hududlar diniy-ma'naviy turizm xaritasida mustahkam o'rin egallaydi.

Kogon va Romitan tumanlarida turizmni kompleks rivojlantirish natijalari:

Har bir loyiha turizmning muayyan turi (gastronomik, ziyorat, yoshlar, madaniy, oilaviy) asosida yangi mahsulot va xizmatlar majmuasini taklif etadi. Bu esa mahalliy turizmni mavsumiy emas, balki doimiy faoliyat yurituvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantiradi.

Mehmonxona va homestaylar, ovqatlanish shoxobchalari, hunarmandchilik, gidlik, transport xizmati kabi sohalarda kichik va o'rta biznes subyektlari faol ishtirok eta boshlaydi. Bu orqali ish o'rinlari yaratiladi, aholining daromadi oshadi, mahalliy iqtisodiyot jonlanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar turizmini rivojlantirish nafaqat yangi auditoriyani jalb etadi, balki mahalliy yoshlar va ayollarning turizmga ishtirokini kuchaytiradi. Bu ijtimoiy inklyuziya va faollikni oshiradi.

Tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, an'anaviy oshxona va urf-odatlar turizm orqali ommalashtiriladi, bu esa madaniy identiklikni asrash va yosh avlodga yetkazishda muhim vosita bo'ladi.

Raqamli marketing, SMM, festivallar, tematik turlar orqali Kogon va Romitan tumanlari ichki va xalqaro turizm xaritasida o'z o'rniga ega bo'ladi. Bu esa turistik brend yaratish va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (2022). 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. PF–60-son. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. (2022–2024). Hududiy turizmni rivojlantirish bo'yicha strategik dasturlar va hisobotlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). Ichki turizm, gastronomiya, ziyorat va yoshlar turizmi statistik ko'rsatkichlari.
4. Rajabov M. E. (2021). Turizm marketingi, gastronomik va ziyorat turizmi asoslari. Toshkent: Iqtisod nashriyoti.

¹UNESCO. (2020). Cultural heritage and sustainable tourism: Guidelines for heritage-based tourism planning. Paris.
UNWTO. (2019). Religious Tourism in Asia and the Pacific: Case Studies and Lessons Learned. Madrid: World Tourism Organization.

5. Usmonov R. R., Qodirov M. M. (2022). Turizmni tashkil etish va rejalashtirish. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. To'laganova Z. A. (2020). Madaniy meros obyektlarini turizmda foydalanish asoslari. Buxoro: BuxDU nashriyoti.
7. Karimov A. N. (2022). Ichki va yoshlar turizmi asoslari. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
8. T. Mirzayeva. (2021). O'zbekiston milliy oshxonasi va zamonaviy turizm. Toshkent.
9. Buxoro viloyati madaniyat va turizm boshqarmasi. (2022). Romitan va Kogon tumanlaridagi tarixiy, diniy va gastronomik salohiyatga ega ob'ektlar ro'yxati va holati.
10. UNWTO (World Tourism Organization). (2020–2023). Gastronomy Tourism Global Report, Religious Tourism Report, Youth and Social Media in Tourism. Madrid.
11. UNESCO. (2020). Cultural Heritage and Sustainable Tourism: Planning Guidelines. Paris.
12. OECD. (2012). Food and the Tourism Experience: OECD-Korea Workshop.
13. SproutSocial, HubSpot va Hootsuite platformalari (2021–2023). Ijtimoiy tarmoqlarda turizm mahsulotlarini targ'ib qilish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar

THE ROLE OF NOSTALGIA TOURISM IN SHAPING SELF-IDENTITY: A CASE STUDY OF THE FERGANA VALLEY

Ismoilova Xumora Jamoliddin qizi
researcher Institute for Tourism Development,
Tashkent, Uzbekistan, M.Ulug'bek st, 115 A
[*ismoilovaxj@gmail.com*](mailto:ismoilovaxj@gmail.com)

Abstract: *in this article, you will find information about the concept of self-identity, nostalgia, and its connection with tourism. Additionally, the paper explores the role of nostalgia tourism in the Fergana Valley and presents recommendations for its further development.*

Key words: *Uzbekistan, Fergana valley, self-identity, nostalgia, ancestral memory.*

Introduction

Nostalgia has long been an integral part of the concepts of tourism and heritage. However, just like the concepts of tourism and heritage, understandings of the meaning of nostalgia and how it influences travelers' motivations have evolved over time. Importantly, the concept of nostalgia has always been closely linked with travel and tourism (Anna Earl & C. Michael Hall, 2023).

The linguistic interpretation of nostalgia was first introduced by Hofer in 1688, who used the German-Swiss term «Heimweh,» which translates to «homesickness» in English. In French, the term «maladie du pays» means “disease of the homeland.” In Greek, «nostos» means returning home, while «algos» signifies pain or suffering. The word «nostalgia» first emerged in Western countries and can be translated into Uzbek as “qömsash” or “sog‘inish,” meaning longing or yearning.

The act of traveling to a destination or site out of a feeling of longing or emotional attachment has given rise to a new form of tourism. In Western countries, this type of tourism has been clearly defined and is referred to as “nostalgic tourism.” This form of tourism typically involves travel to places connected to one's ethnic or cultural roots (Asadova, A. O. 2021).

Nostalgia tourism is a type of travel motivated by the desire to recall memories of the past, childhood, and youth. It is primarily rooted in individuals' personal histories or cultural nostalgia. This form of tourism is not merely a journey, but a meaningful way to reconnect with one's own history and establish a connection with the past.

Methods

Today, the desire to relive past experiences is often explained through nostalgic emotions. This process may be related to migration or the pursuit of new experiences. While mobility and spatial change can evoke a sense of freedom, nostalgia brings to mind emotions and memories that have been lost in the past. Furthermore, nostalgia does not only involve seeing antique items or cultural monuments but also represents a yearning to remember events from earlier times. Nostalgic tourism can also resemble ethnic tourism. For example, people may show interest in visiting the places